

**TALABA YOSHLARNI SAN'ATGA QIZIQISHINI OSHIRISHDA
FESTIVALLARNING O'RNI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7800238>

Abdulaziz Raxmatullayev
Gulshoda Mansurova

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining “Yoshlarni ma'naviy-marifiy tarbiyalash bo'limi xodimlari

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining “Yoshlarni ma'naviy-marifiy tarbiyalash” bo'limining Indoneziyada bo'lib o'tishi rejalashtirayotgan xalqaro “Tenggarong International Folklore & Folk Art Festival” festivaliga tayyorgarlik ko'rilib yaratilganligi va bugungi globallashuv zamonida diplomatiyaning “Culture diplomacy”¹⁷ turidan foydalangan holda xalqlarning o'zaro do'stligini mustahkamlashning naqadar muhimligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Culture diplomacy, UNESCO, Sharqiy Kalimantan, Nurafshon folklor raqs, do'stlik bayrog'i.

Bugungi kunda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti mamlakatimizning chet-eldagi diplomatik vakolatxonalariga diplomatlarni yetishtirib beradigan mamlakatimizdagi eng ilg'or universitet ekanligi hech kimga sir emas.

Hozirda universitet dunyoning 30 dan ortiq universitetlari, xalqaro tashkilotlar bilan muntazam hamkorlik aloqalarini o'rnatgan va bu tashkilotlar tashkil etayotgan forum, konferensiya va madaniy festivallarda universitetning xodimlari va talabalari muntazam qatnashib kelmoqda¹⁸.

Hozirgi globallashuv davrida “Culture diplomacy” ning o'mi o'zining eng yuqori darajasiga chiqmoqda. Umuman olganda diplomatiyaning bu turi insoniyat tarixida xalqlar o'rtasidagi do'stona aloqarni mustahlash uchun bir necha ming yillardan buyon xizmat qilib kelmoqda.

Mamlakatimiz bugungi kunda dunyoning har-bir davlati bilan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda hamkorlik qilish bilan bir qatorda madaniy sohalarda ham keng hamkorlik qilib kelmoqda va bu albatta mamlakatimizning dunyoning boshqa mamlakatlari bilan do'stona aloqarni mustahkamlashga zamin bo'lmoqda.

Joriy yilning mart oyida universitetning “Nurafshon folklor raqs” jamoasi nomiga Indoneziyaning Madaniyat va Turizm vazirligi nomidan UNESCO shafeligi ostida

¹⁷ Cultural Diplomacy: What Is It and Why Does It Matter? [elektron manba] <https://medium.com/culture-diplomacy/cultural-diplomacy-what-is-it-and-why-does-it-matter-8b54cdeba508>

¹⁸ JIDU talabalari Ozarbayjon Respublikasi Yoshlar tashkilotlari Milliy Assambleyasi tomonidan taqdirlandi [elektron manba] <https://xs.uz/uz/post/zhidu-talabalari-ozarbayjon-respublikasi-yoshlar-tashkilotlari-millij-assambleyasi-tomonidan-taqdirlandi>

tashkillashtirilayotgan Sharqiy Kalimantan viloyatida bo'lib o'tadigan "Tenggarong International Folklore & Folk Art Festival"¹⁹ nomli festivalga taklifnomalar yuborildi.

Indoneziyada an'anaviy tarzda tashkil etiladigan ushbu festivalda butun dunyo bo'ylab 50 mingga yaqin insonlar ishtirot etadilar.

Ushbu festivalning asosiy maqsadi dunyo mamlakatlari madaniyatlarini bir bayroq ostida jamlash, o'z-aro do'stlik rishtalarini yanada mustahkamlashga xizmat qilishdan iborat.

Ushbu festivalda munosib ishtirot etish uchun Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetidan yigirmaga yaqin iqtidorli, san'atning har xil turlariga qiziquvchi talabalardan tashkil topgan jamoa shakllanitirildi. Shuningdek, festivalda sovrinli o'rnlardan birini egallashni o'ziga maqsad qilib olgan yuragida o'ti bor, san'atga mehri baland jamoa a'zolari "Yoshlarni ma'naviy-marifiy tarbiyalash" bo'limi boshchiligidagi qizg'in tayyorgarlikni boshlab yuborgan.

Talabalarning, umuman yosh avlodning san'atga bo'lgan qiziqishini oshirishga e'tibor qaratish, ularni rag'batlanirib borish natijasida bu kabi yoshlar safini kengaytirish mumkin. Oxirgi yillarda universitet talabalari orasidan rassomlar, musiqa asboblarini maromiga yetkazib ijro etadiganlar, qo'l mehnati orqali amaliy san'at bilan shug'ullanuvchilar, maromiga yetkazib qo'shiq kuylaydigan va yoki raqsga tushadigan talabalar soni sezilarli tarzda oshib bormoqda. Talabalarning biror bir san'at turi bilan muntazam shug'ullanib borishi, ularni bo'sh vaqtini to'g'ri va unumli taqsimlashga majbur qiladi. San'atga ishtiyocoqmand qalblarda esa yovuzlikka va yomon niyatlargacha also joy qolmaydi, aksincha ezgulik va yaxshilik urug'larini sochadi. Shunday ekan, festivalda qatnashishning asosiy sababi, millati va dini boshqa bo'lishiga qaramasdan maqsadi yagona yoshlarni jipslashtirish, ularning safini yanada kengaytirishdan iboratdir.

Festivalda asossiy san'at turlaridan biri bo'lmish musiqa san'ati keskin farqlanadigan milliylik va mintaqaviylik xususiyatiga ega. Xususan, G'arb bilan Sharq musiqasida intonatsita, ohang, ijro uslublari va usullari, musiqiy asboblarning har xilligi yaqqol ko'zga tashlanadi. To'g'ri, g'arbliklar va sharqliklar odam sifatida bir biriga (ichki dunyosi nuqtayi nazaridan) muayyan o'xshashliklarga ega bo'lganidek, ularning musiqasida, ijro asboblarda qay ma'nodadir umumiyligini bor. Biroq, musiqa mohiyatan umum insoniy tabiatga ega, qaysi millatga taalluqli bo'lishidan qat'iy nazar, musiqa tarjima qilinmaydi, rassomlik san'atiga o'xshab, uning tili-bitta. Faqat o'sha tilni tushunish uchun har bir millat o'z estetik tarbiyasini yuksak darajasiga ko'tarishi, estetik didini ilmiy-amaliy asosida shakllantirishi lozim²⁰.

Bugungi siyosiy keskinliklar ortib borayotgan dunyoda "Culture diplomacy" o'rni beqiyos albatta. Aynan shunday festival va tadbirlarni tashkil etgan holda bir-biriga qarama qarshilikda yashayotgan xalqlar, davlatlarni yagona bayroq "do'stlik bayrog'i" ostida jamlash orqali bugungi keskinliklarning barchasiga chek qo'yish mumkin.

Shu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, bunga o'xshash festivallar nafaqat dunyo xalqlarini birlashtirib millatlar aro bag'rikenglik tuyg'ularini ilgari suradi, balki bugungi kunda dunyoning

¹⁹ International Council of Organizations of Folklore Festivals and Folk Arts [elektron manba] [http://www.cioff.org/events-festival.cfm/en/5025/Indonesia-Erau-Adat-Kutai %26 International Folk Art Festival 2023](http://www.cioff.org/events-festival.cfm/en/5025/Indonesia-Erau-Adat-Kutai-%26-International-Folk-Art-Festival-2023)

²⁰ San'atning kelib chiqishi va taraqqiyoti. San'at turlari va ularning o'zaro aloqadorligi [elektron manba] <https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlار-mustaql-ish-kurs-ishi/item/12676-san-atning-kelib-chiqishi-va-taraqqiyoti-san-at-turlari-va-ularning-o-zaro-aloadorligi>

ba'zi bir nuqtalarida yuz berayotgan qarama-qarshiliklarning yechimi sifatida foydalanish mumkin va albatta bu ijobiy yechim sifatida o'z natijasini berishi shubhasiz.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. Cultural Diplomacy: What Is It and Why Does It Matter? [elektron manba] <https://medium.com/culture-diplomacy/cultural-diplomacy-what-is-it-and-why-does-it-matter-8b54cdeba508>

2. JIDU talabalari Ozarbayjon Respublikasi Yoshlar tashkilotlari Milliy Assambleyasi tomonidan taqdirlandi [elektron manba] <https://xs.uz/uz/post/zhidu-talabalari-ozarbajzhon-respublikasi-yoshlar-tashkilotlari-millij-assambleyasi-tomonidan-taqdirlandi>

3. International Council of Organizations of Folklore Festivals and Folk Arts [elektron manba] [http://www.cioff.org/events-festival.cfm/en/5025/Indonesia-Erau_Adat_Kutai %26 International Folk Art Festival 2023](http://www.cioff.org/events-festival.cfm/en/5025/Indonesia-Erau_Adat_Kutai_%26_International_Folk_Art_Festival_2023)

4. San'atning kelib chiqishi va taraqqiyoti. San'at turlari va ularning o'zaro aloqadorligi [elektron manba] <https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqlish-kursishi/item/12676-san-atning-kelib-chiqishi-va-taraqqiyoti-san-at-turlari-va-ularning-o-zaro-aloqadorligi>